LOTIN TILIDA YUNON-LOTIN DUBLETLARI O‘RGATILISHINING LINGVISTIK TAHLILI VA USULLARI

Xamdamova Muqaddas Xamidovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti tillar kafedrasining o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy terminologiyaning shakllanishida qadimgi yunon va lotin tillarining o‘rni, ularning lingvistik xususiyatlari, termin yasash modellari hamda zamonaviy tibbiy tilga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Yunon va lotin terminlarining semantik, morfologik va grammatik xususiyatlari misollar asosida yoritiladi hamda lotin tilini o‘rgatuvchi institut, kollej o‘qituvchilari hamda universtitet tibbiyot yo‘nalishidagi talabalarga lotin tilidagi yunon-lotin dubletlarining grammatik, leksik, fonetik, morfologik fragmentlarni hamda sodda va murakkab tibbiy atama elementlarni xususan, og‘zaki va yozma nutqda oson hamda qulay ishlatishni o‘rgatishlari uchun kichik metodik ishlanma hisoblanadi. Bu yerda keltirilgan ma’lumotlar orqali yuqoridagi bu komponentlar lotin tilida klinik terminlarni o‘rgatish uchun o‘z tinglovchilariga qanday usullardan samarali foydalanish mumkinligini tushuntirishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: tibbiy terminologiya, yunon tili, lotin tili, lingvistika, termin yasash, gibrid terminlar, atama element, klinik termin, tibbiyot, leksik minimum, fonetika, grammatika, morfologik, fragmentlar, “ven” diagrammasi, “klaster“ chizmasi, innovatsiya, metodik usullar, savol, dars, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически анализируется роль древнегреческого и латинского языков в формировании медицинской терминологии, их лингвистические особенности, модели словообразования и влияние на современный медицинский язык. Семантические, морфологические и грамматические особенности греческих и латинских терминов иллюстрируются примерами. Работа представляет собой небольшое методическое пособие для преподавателей латинского языка в институтах и колледжах, а также для студентов медицинских факультетов университетов, позволяя обучать использованию грамматических, лексических, фонетических и морфологических элементов греко-латинских дублетов, а также простых и сложных медицинских терминов в устной и письменной речи. Представленные данные демонстрируют, какие методы преподавания наиболее эффективны для обучения клинической терминологии на латинском языке.

Ключевые слова: медицинская терминология, греческий язык, латинский язык, лингвистика, словообразование, гибридные термины, элементы терминов, клинический термин, медицина, лексический минимум, фонетика,

ISSN 3030-3907

грамматика, морфология, фрагменты, диаграмма Венна, кластерная схема, инновации, методические приемы, вопрос, занятие, педагогические технологии

Abstract. This article provides a scientific-theoretical analysis of the role of Ancient Greek and Latin in the formation of medical terminology, their linguistic features, word-formation models, and their influence on contemporary medical language. The semantic, morphological, and grammatical characteristics of Greek and Latin terms are illustrated with examples. The work serves as a small methodological guide for Latin language teachers in institutes and colleges, as well as for medical students at universities, enabling them to teach the use of grammatical, lexical, phonetic, and morphological elements of Greek-Latin doublets, as well as simple and complex medical term components, in both oral and written speech. The data presented demonstrate which teaching methods are most effective for instructing clinical terminology in Latin.

Keywords: medical terminology, Greek language, Latin language, linguistics, word formation, hybrid terms, term elements, clinical term, medicine, lexical minimum, phonetics, grammar, morphology, fragments, Venn diagram, cluster diagram, innovation, methodological techniques, question, lesson, pedagogical technology

KIRISH

Darhaqiqat, XXI asr- zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar hamda sun'iy intellektlar asri ekanligi bot-bot yangramoqda. Demak, hozirgi kunda jamiyatning istalgan sohasida bilimli,yuqori salohiyatga ega bo'lgan zukko, o'zining mutaxassisligi bo'yicha xorijiy tillarda erkin faoliyat yurita oladigan malakali kadrlarga nafaqat bizning yurtimiz balki butun dunyo mamlakatlari mana shunday mutaxassislarga ehtiyoji yuqori ekanligi kundan kunga ortib bormoqda. Shuningdek, dunyo tillari orasida xalqaro tillar sifatida tan olingan xorijiy tillarni bilish, har bir kadrning o'z kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Xususan, tibbiyot yo'nalishida ham mana shu tillar qatori lotin tilini bilish bugungi kunda dolzarb asosiy fragmentlardan biri bo'lib bormoqda. Chunki bunday ustunlik va imkoniyatlarga ega bo'lgan kadrlar o'z yurtida hamda dunyo bo'ylab samarali tajriba almashinib, kasbiy barkamollikka erishishi mumkin. Tibbiyot fani taraqqiyoti bilan bir qatorda uning tili ham shakllanib borgan. Jahon tibbiyot terminologiyasining asosiy qatlami qadimgi yunon va lotin tillariga borib taqaladi. Ushbu tillar asrlar davomida ilm-fan tili sifatida xizmat qilgan bo'lib, bugungi kunda ham tibbiy terminlarning katta qismi aynan shu manbalarga asoslanadi. Shu sababli yunon va lotin tibbiy terminlarini lingvistik jihatdan o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

ASOSIY QISM: Tibbiy terminologiya asosan qadimgi yunon va lotin tillari negizida shakllangan. Yunon tili tibbiyot fanining nazariy asoslarini, lotin tili esa anatomiya va klinik amaliyotni ifodalashda muhim rol o‘ynagan.

Tibbiyot sohasida lotin tilini o‘rganishdagi eng muhim aspektlardan biri bu — yunon-lotin dubletlarining tibbiy terminlarini o‘rgatishdir. Yunon tili – kasalliklar, simptomlar, jarayonlarni, lotin tili – anatomiya, farmatsiya, tashxislarni ifodalaydi.

1.Yunon tibbiy terminlarining lingvistik xususiyatlari:

a) Semantik xususiyatlari: Yunon terminlari ko‘pincha kasallik holatini, patologik jarayonni, funksional buzilishlarni ifodalaydi. Misollar: cardia – yurak, nephros – buyrak, derma – teri, pathos – kasallik.

b) Morfologik tuzilishi: Yunon terminlari prefiks + ildiz + suffiks asosida tuziladi.

Misollar :hyper–tensio (yuqori + bosim), hypo–glyc–emia (past + shakar + qon)

c) Suffikslar: –itis – yallig‘lanish (bronchitis); –osis – degenerativ jarayon (arthrosis); –algia – og‘riq (cephalalgia); –logia – fan, ta’limot (cardiologia)

2. Lotin tibbiy terminlarining lingvistik xususiyatlari:

a) Nomlash funksiyasi lotin terminlari asosan: anatomik tuzilmalar, fiziologik holatlar, dori vositalarini nomlashda ishlatiladi. Misollar: cor – yurak, pulmo – o‘pka, hepar – jigar, vena cava – kovak vena.

b) Grammatik xususiyatlari: Lotin tili kelishik va jins kategoriyalariga ega. Misollar: musculus longus (erkak jins), vena magna (ayol jins).

c) Sifat + ot modeli: Ko‘plab lotin terminlari ikki yoki undan ortiq komponentdan iborat. Misollar: arteria carotis communis, systema nervosum central.

Yunon-lotin terminlarining o‘zaro integratsiyasi tibbiy terminologiyada yunon va lotin birliklari ko‘pincha birikma shaklida qo‘llanadi. Misollar: nephritis chronic, gastritis acuta, encephalopathia toxica. Bu hodisa tibbiy terminologik integratsiya deb ataladi.


Lingvokulturologik jihatlari yunon va lotin terminlari ilmiy betaraflikni ta’minlaydi, xalqarolik xususiyatiga ega, milliy tillar uchun terminologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan: diabetes mellitus – “asal kabi shirin oqim”, influenza – “ta’sir qilish”. Zamonaviy tibbiy tilga ta’siri, bugungi kunda ingliz, fransuz, nemis va o‘zbek tibbiy terminologiyasi aynan yunon-lotin asosiga tayanadi. Misollar: cardiology / kardiologiya, neurology / nevrologiya, anatomy / anatomiya.


Ularni o‘rgatishda asosan o‘yinli metodlardan, kartochka, rasm va sxemali modellardan foydalanish mumkin. Bunday xilma xil usullar til o‘rganishdagi

ISSN 3030-3907

qiyinchiliklarni yengillashtirishga yordam beradi. Talabalar xorijiy tillarni o‘rganishda innovatsion metodlardan va o‘yinlardan foydalanishi samarali usullardan hisoblanadi. Bunday holatlarda, talabalar motivatsiyon emmutsiya bilan harakat qiladi va faoliyat davomida charchoqni his etmaydi; 1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing; 2. Xatni to‘xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e’tibor bermang; 3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Agarda aqlingizda g‘oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qachonki yangi g‘oyalar kelmaguncha qog‘ozga rasm chizib turing. Demak, hozir bir qancha yunon-lotin dublet so‘zlarning ko‘rinishini ilova qilamiz va quyidagi sxemali metodik usullarda qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin.

Cephalo- caput- bosh; somato- corpus- tana; osteo-os,ossis-suyak; stetho-pectus, thorax- ko‘krak; odonto-os, oris- tish; laparo-venter, abdomen-qorin; procto-rectum, anus-to‘g‘ri ichak; cysto-vesica- siydik pufagi; gastro- ventriculus-oshqozon; metro- uterus-bachadon; typhlo- caecum- ko‘r ichak; oo-ovum-tuxum;





Dars jarayonida qiziqarli muhitni yanada shakillantirish uchun bahs munozarali debatlardan va dialoglardan foydalanish mumkin. Xulosa o‘rnida shuni

ISSN 3030-3907

aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan interfaol metodik usullar va tavsiyalar darsda talabalarga lotin tilida tibbiy terminlarni oson va yengil o‘rganish bilim, ko‘nikmalarini shakillantira oladi.

XULOSA: Xulosa o‘rnida shuni ifodalash o‘rinliki, qadimgi yunon tili tibbiyot fanining nazariy asoslarini shakllantirgan. Tibbiyot fani rivojlanishi bilan bir qatorda uning tili ham shakllanib borgan. Jahon tibbiyot terminologiyasining asosiy qatlami qadimgi yunon va lotin tillariga borib taqaladi. Ushbu tillar asrlar davomida ilm-fan tili sifatida xizmat qilgan bo‘lib, bugungi kun globallashuv jarayonida ham tibbiy terminlarning katta qismi aynan shu manbalarga asoslanadi. Shu sababli yunon va lotin tibbiy terminlarini lingvistik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy masala ekanligini ta’kidlash joiz deb bilaman. Kasalliklar, patologik holatlar va fiziologik jarayonlarga oid terminlarning aksariyati aynan yunon tilidan olingan. Yunon va lotin tibbiy terminlari tibbiy tilning lingvistik asosini tashkil etadi, semantik aniqlik va ilmiy universallikni ta’minlaydi hamda termin yasashda faol modellarga ega. Bu terminlar ma’no aniqligi va ilmiy betarafligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida, ilmiy yoki kasbiy faoliyatlarda sodda va murakkab anatomik terminlarni hamda yunon tibbiy atama elementlarini lingvistik, grammatik jihatdan semantikasini va morfologik tuzilishini to‘g‘ri anglagan holda qo‘llay olishi, tibbiyot sohasida lotin va yunon tillarini talab darajasida o‘rganish kerakligini taqazo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bopp, F. (1833–1852). Comparative grammar of Sanskrit, Zend, Greek, Latin, Lithuanian, Gothic and German. London: Williams and Norgate.
2. Grimm, J. (1819–1837). Deutsche Grammatik. Göttingen: Dieterich.
3. Lewis, C. T., & Short, C. (1879). A Latin dictionary. Oxford: Clarendon Press.
4. Maxmudov, Z. M., & Sharipov, B. S. (2021). Lotin tilining tibbiyot terminologiyasidagi o‘rni va uni o‘qitish metodikasi. Ilmiy axborotnomalar, 4(2), 115–120.
5. Rask, R. K. (1818). Undersøgelse om det gamle nordiske eller islandske sprogs oprindelse. Copenhagen.
6. Yoqubova, Z. (2025). Lotin tilining tibbiyot institutlarida o‘rgatilishining metodik tamoyillari. Philology and Language Studies, 2(1), 78–84.
7. H.T.Umarov, Z.M.Maxmudov, U.A.Safarova “Lotin tili va tibbiy- farmasevtik terminalogiya asoslari”. HILOL MEDIA. Toshkent 2023y.
8. Айтмуратова, П. Г. (2022). Важность обучения латинскому языку в медицинских вузах. Science and Education, 3(12), 897-902.

ISSN 3030-3907

9. Айтмуратова, П. Г. (2024). I-III СКЛОНЕНИЯ ИМЁН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В ЛАТИНСКОМ ЯЗЫКЕ. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 22(5), 37-42.
10. Beknazarova, M. K. (2022). Lotin tilini o‘qitish jarayonida klinik kafedralar bilan integratsiyalashtirilgan mashg‘ulotlarning maqsadli yo‘naltirilishidagi natijalar. Science and Education, 3(11), 653-656.

ISSN 3030-3907